

“TASDIQLAYMAN”  
Raqobatni rivojlantirish  
va iste'molchilar huquqlarini himoya  
qilish qo'mitasini raisi

H. Turaxujayev  
2025-yil \_\_\_\_\_ iyul

**Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining  
2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan  
ISH REJASI**

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
<b>I. QONUN HAMDA METODOLOGIK HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH</b>			
<b>1.1. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi tartibga solish yo'nalishida</b>			
1.	Davlat xaridlari jarayonida raqobat qonunchiligi talablariga rioxaliga qilinishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni va savdolarni o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni tegishli organlarga kiritish.	2025-yil iyul	B.Boboxonov A.Salimov Markaziy apparat xodimlari
2.	Hududiy boshqarmalarning raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va insofsiz raqobatga qarshi kurashish bo'yicha 2025-yilning 1-yarim yilligida olib borgan faoliyatini tahlil qilish hamda mavjud kamchilik va muammolarni qal qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.	2025-yil iyul	B.Boboxonov A.Salimov Markaziy apparat xodimlari
3.	Qo'mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan davlat xaridlarida raqobat qonunchiligi talablariga rioxaliga etilishini nazorat etishdagi huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish va natijasi bo'yicha takliflarni tayyorlash.	2025-yil avgust	B.Boboxonov A.Salimov
4.	Vazirlik va idoralar tomonidan <b>regulation.gov.uz</b> va <b>loyiha.adliya.uz</b> portaliga joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha ularning raqobat muhitiga ta'siri yuzasidan tegishli xulosalar berish.	Doimiy	B.Boboxonov A.Salimov Markaziy apparat xodimlari

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
5.	Raqamli bozorlarda iqtisodiy konsentratsiya oldidan rozilik olish bo'yicha Nizom loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil dekabr	D.Nasirova A.Mo'ydinov Sh.Qahhorov J.Istroilov
<b>1.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida</b>			
6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 fevraldag'i 75-sон qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga "Chakana savdoda aksiyalar va chegirmalarni tashkil qilish, o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Avgust	E.Xaitmetov, Shadmankulov, <b>B.Sharipov</b>
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 dekabrdagi 716-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ro'yxatiga kiritish bo'yicha taklif ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Oktyabr	E.Xaitmetov, Shadmankulov, <b>B.Sharipov</b>
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-sон Farmonining 4-ilovasi, 63-bandiga muvofiq ishga tushiriladigan "Iste'molchi murojaati" elektron tizimi orqali kelib tushadigan barcha iste'molchilarning murojaatlarini qabul qilish va barcha bosqichlarda monitoring qilib borish bo'yicha idoraviy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Noyabr	E.Xaitmetov, Shadmankulov, <b>B.Sharipov</b>
9.	O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunini xalqaro tajriba asosida tahlil qilish, mukammallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	Dekabr	E.Xaitmetov, Shadmankulov, B.Sharipov, F.Madaminov, A.Raupov, X.Ganjaev
10.	Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil 25-avgust	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
11.	O'zbekiston Respublikasi <b>Yoshlar ishlari agentligi</b> va tizim tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil 25-sentabr	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
12.	O'zbekiston Respublikasi <b>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</b> va tizim tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil 25-oktabr	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
13.	O'zbekiston Respublikasi <b>O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi</b> va tizim tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonunchilik talablari asosida o'tkazilganligini o'rganish.	2025-yil 25-noyabr	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
14.	Raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlар va insofsiz raqobat yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-apreldagi 161-son qaroriga asosan " <b>marketplace</b> " tizimida ta'minotchilar taklif etayotgan mahsulotlar (xizmatlar) bo'yicha ustun mavqeni suiiste'mol qilishning, ta'minotchilarning o'zaro kelishib qilingan harakatlari va til biriktirishlari orqali narxlarning asossiz o'shining oldini olish, yetkazib berilayotgan mahsulotlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) narxlarining hududdagi ichki bozor narxlariga mutanosib bo'lishini ta'minlash.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
16.	<b>Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish</b> bo'yicha davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarga xat yuborish.	2025-yil 15-avgust	T.Salimov
17.	"UzAuto CEPLA" MCHJ QK faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 25-sentyabr	T.Salimov
18.	"LUKOYL Uzbekistan Opereyting Kompani" MCHJ QK faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil	T.Salimov

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
		30-sentyabr	
19.	“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 25-oktyabr	T.Salimov
20.	“UNITEL” MCHJ faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 30-oktyabr	T.Salimov
21.	“Steel property construction” MCHJ faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 10-oktyabr	T.Salimov
22.	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 15-oktyabr	T.Salimov
23.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida <b>davlat ishtirokidagi korxonalarни xatlovdan o’tkazib</b> , oxirgi uch yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingen tushumining o‘rtacha yillik miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i <b>davlatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar ro‘yxatini shakllantirish</b> .	2025-yil 15-noyabr	T.Salimov
24.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagи PF-108-sон Farmoniga muvofiq <u>tovar, moliya va raqamli bozorda ustun mavgeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar</u> tomonidan o‘zlarining rasmiy veb-saytlarida <b>sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning monopol turlari bo‘yicha namunaviy shartnomalar (ofertalar)</b> joylashtirib borilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga ma’lumot kiritish.	2025-yil 20-dekabr	T.Salimov
25.	“YandexGo UB” MCHJ faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish.	2025-yil 25-sentyabr	T.Salimov
26.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagи PF-108-sон Farmoniga asosan “ <b>Biz sizni eshitamiz</b> ” loyihasi doirasida tadbirkorlar va xorijiy	Har chorakda	T.Salimov

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi*</b>	<b>Ijro muddati*</b>	<b>Mas'ul ijrochilar*</b>
	investorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.		
27.	Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlardagi <u>monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatini</u> uchun mas'ul bo'lgan xodimlarga raqobat qonunchiligi talablarini keng tushuntirish va mazkur sohaga oid bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish maqsadida telegram messenjerida mas'ul shaxslar uchun tashkil etilgan guruhsda muntazam ravishda <b>test sinovlarini</b> o'tkazib borish.	Doimiy	T.Salimov
28.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarga monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va faoliyatini yuritishda hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha bir yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi"ning ishlab chiqilishida ko'maklashish.	Doimiy	T.Salimov
29.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgan korxonalar tomonidan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan harakatlar xaritasida (yo'l xaritasida) belgilangan vazifalarning bajarilishi bo'yicha monitoring ishlarini olib borish.	Doimiy	T.Salimov
30.	Hududiy raqobatbardoshlik indeksi asosida hududlarda raqobat muhitini tahlil etish.	2025-yil iyul-avgust	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov M.Sultanxanov
31.	Ichki bozordagi raqobat muhitini nufuzli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda, har ikki yilda mustaqil baholashdan o'tkazish, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	2025-yil iyul-dekabr	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov M.Sultanxanov
32.	Mahsulot bozorini tartibga solish (Product market regulation, PMR) metodologiyasi asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash, raqobatbardoshlikka to'siq bo'ladigan omillarni aniqlash, aniqlangan to'siqlar va nomutanosibliklarni bartaraf etish.	2025-yil iyul-noyabr	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov J.Isroilov M.Sultanxanov

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi*</b>	<b>Ijro muddati*</b>	<b>Mas'ul ijrochilar*</b>
33.	Iqtisodiyot tarmoqlarini raqobat rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, qizil, sariq va yashil guruhlarga ajratish.	2025-yil iyul-avgust	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov M.Sultanxanov
34.	Muqobilari bo'limgan va texnik jihatdan murakkab tovarlarni yetkazib beruvchilar bozorida tahlil o'tkazish.	2025-yil iyul-dekabr	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov M.Sultanxanov
35.	Chet davlatlariga chiqish bo'yicha vizani rasmiylashtirish uchun ariza topshirish xizmatlarini ko'rsatish bozorida tahlil o'tkazish.	2025-yil iyul-avdust	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov M.Sultanxanov
36.	Raqamli platformalar, jumladan, mobil ilovalar do'konlari, umumiy yoki targetlashgan onlayn qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, video (shu jumladan, televideniye va kino) va audio (shu jumladan, musiqa) kontentini onlayn uzatish yoki almashish platformalari bozorlarida tahlil o'tkazish va ustun mavqeyini e'tirof etish.	2025-yil iyul-avdust	D.Nasirova A.Yusupov J.Istroilov
37.	2023-2024 yillarda tashkil etilgan davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning affillangan shaxslarini ro'yxatini shakllantirish. Hududiy organlar tomonidan ushbu ro'yxatga asosan davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning affillangan korxonalari ro'yxatini tahlilini amalga oshirish hamda oldindan roziligi olinmagan davlat korxonalari bo'yicha tegishli chora ko'rish.	2025-yil fevral - may	D.Nasirova A.Mo'ydinov Sh.Qahhorov J.Istroilov Hududiy organlar
38.	Ichki bozorning mahalliy mahsulotlar bilan to'yinganligi darajasini aniqlash yuzasidan tahlil o'tkazish hamda natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2025-yil iyul-dekabr	D.Nasirova A.Yusupov O.Xoliqov
39.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagagi "Davlat muassasalarini isloh qilishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-123-son qaroriga asosan davlat muassasalari faoliyatini tahlil qilib, bitta tovar bozorida beshta va undan ortiq xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib kelayotgan,	2025-yil may	D.Nasirova Hududiy organlar

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
	raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan davlat muassasalarini xususiyashtirish yoki tugatish bo'yicha takliflarni Davlat komissiyasiga kiritish.		
40.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish va qo'shib olish hamda xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha bitimlarga oldindan rozilik berish yuzasidan arizalarni ko'rib chiqish.	Doimiy	D.Nasirova A.Mo'ydinov Sh.Qahhorov J.Isroilov Hududiy organlar
41.	Davlat ishtirokidagi korxonalarni va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etish (qayta tashkil etish)ga oldindan rozilik berish yuzasidan arizalarni ko'rib chiqish.	Doimiy	D.Nasirova A.Mo'ydinov Sh.Qahhorov Hududiy organlar
42.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash.	Har chorakda	D.Nasirova A.Mo'ydinov Sh.Qahhorov Hududiy organlar
43.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar, oldindan rozilik berish to'g'risida berilgan qarorlar va mazkur harakatlarni oldindan rozilik olmasdan sodir etganlik uchun qo'zg'atilgan ishlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan maqolalar tayyorlab Qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtirib borish.	Doimiy	D.Nasirova A.Mo'ydinov J.Isroilov Sh.Qahhorov
44.	Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega deb e'tirof etilgan koroxonalarni inventarizatsiyadan o'tkazish.	Doimiy	D.Nasirova A. Yusupov O. Xoliqov M.Sultanxanov
<b>2.2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida</b>			
45.	Dori vositalariga belgilangan narxlarni oshirganlik holatlari bo'yicha Raqobat qo'mitasining " <b>Fair tech</b> " yagona axborot tizimi orqali kelib tushgan xabarlar asosida tekshirish o'tkazib, <b>belgilangan tartibda chora ko'rish</b> .	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, B.Sharipov

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi*</b>	<b>Ijro muddati*</b>	<b>Mas'ul ijrochilar*</b>
46.	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'rganilgan xususiy tibbiyot tashkilotlaridagi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari va amaldagi litsenziyasida ko'rsatilgan faoliyat turlarini tahlil qilish, qonunchilikka nomuvofiqliklar yuzasidan vakolatli organlarga axborot kiritish va takliflar ishlab chiqish.	Sentbr	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, B.Sharipov
47.	Dori vositalariga belgilangan narxlarni oshirish holatlari bo'yicha narxga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli o'rganish va takliflar ishlab chiqish.	Dekabr	E.Xaitmetov, <b>B.Sharipov</b>
48.	Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida tibbiyot va farmasevtika yo'nalishida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida monitoring o'tkazish va qonunchilik talablari buzilishini bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarini ko'rish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, B.Sharipov
49.	Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha tahlil qilish sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha <b>takliflar ishlab chiqish.</b>	Sentyabr	E.Xaitmetov, Sh.Shadmankulov, B.Sharipov, <b>F.Madaminov</b>
50.	Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish uchun mablag'larni jalb etuvchi quruvchilarning elektron ro'yxatiga kiritilmagan qurilish majmualarini <b>reklama qilish</b> holatlarini o'rganish (PQ-4732, 27.05.2020 y.). va aniqlangan taqdirda qonunbuzilishi holatlariga <b>reklama qonunchiligi bo'yicha holda moliyaviy jarima qo'llash.</b>	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, Sh.Maxamadaliev
51.	Bukmekerlik va totalizatorlar xizmatlariga doir har qanday ko'rinishdagi (shakldagi, vositalardagi) reklamani targ'ib qilish holatlarini o'rganish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, Sh.Maxamadaliev
52.	Mahsulotlarni sotishda reklama orqali o'tkaziladigan turli xil rag'batlantiruvchi aksiyalarni <b>o'rganish</b>	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, Sh.Maxamadaliev
53.	Moliyaviy xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha berilgan reklama va axborotlarning asosliligi hamda <b>qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan o'rganish</b>	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov,

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi*</b>	<b>Ijro muddati*</b>	<b>Mas'ul ijrochilar*</b>
			Sh.Maxamadaliev
<b>54.</b>	Iste'molchilar tomonidan ipoteka, avtomobil va iste'mol kreditlarini muddatidan oldin qaytarganda sug'urta mukofotini to'liq yoki qisman qaytarish holatlari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, F.Madaminov
<b>55.</b>	Kommunal xizmatlar uchun pochta bo'linmalari orqali to'lovni amalga oshirganda iste'molchilardan qo'shimcha vositachilik to'lovi olinishi holati yuzasidan o'rganish o'tkazish va aniqlangan qonunchilik buzilishi holatlari bo'yicha chora ko'rish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, F.Madaminov
<b>56.</b>	Bank xizmatchilarini iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va iste'molchilar muammolari bilan ishlash mexanizmini optimallashtirish maqsadida xorijiy tajriba va amaliyotni o'rganish asosida moliyaviy xizmatlar sohasida Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish standartlarini (Banking consumer protection principles) ishlab chiqish va joriy qilish.	Avgust-sentyabr	E.Xaitmetov, <b>F.Madaminov</b>
<b>57.</b>	Iste'molchilarga ichimlik suv ta'minoti korxonasi tomonidan ichimlik suvi yetkazib berilish holatlarini o'rganish. Bunda:  hududiy suv ta'minoti korxonasilari tomonidan aholiga yetkazib berilayotgan ichimlik suvining sifati, holati, standartlar va o'rnatilgan talablarga muvofiqligi yuzasidan vakolatli organlar bilan birga o'rganish va tahlillar o'tkazish;  ISKX tashkilotlarining kimyo-bakteriologiya va kimyo-texnologiya laboratoriyalari tomonidan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi hamkorligidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalarini so'rov yo'li bilan olish va tahlil natijalariga ko'ra huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan nomuayyan doiradagi iste'molchilarga yetkazilgan zararni qoplatish choralarini ko'rish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev
<b>58.</b>	Iste'molchilarga yetkazib berilayotgan elektr energiyasini normativ hujjatlar talablariga hamda shartnoma shartlariga muvofiqlik yekazib berilishini o'rganish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Avgust-sentyabr	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
59.	Aholiga kuz-qish mavsumida suyultirilgan gazni belgilangan hajmda o'tkazib berilganligi o'rganish.	Oktyabr-dekabr	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev
60.	Iste'molchilarga maishiy chiqindilarni tashish xizmatlari ko'rsatishda ko'rsatilmagan xizmatlar uchun noreal qarzdorliklik keltirib chiqargan holatlarni o'rganish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev
61.	Iste'molchilarga issiqlik ta'minoti tashkilotlari tomonidan yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasini sifatiga ko'ra standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga, sanitariya normalari va qoidalariiga hamda issiqlik ta'minoti shartnomasi shartlariga muvofiq bo'lgan issiqlik ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi yuzasidan o'rganish va tahlillar natijalariga ko'ra huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan nomuayyan doiradagi iste'molchilarga yetkazilgan zararni qoplatish choralarini ko'rish	Oktyabr-dekabr	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev
62.	Tovalarning nazorat xaridi amalga oshirilishini, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari bilan birgalikda ularning ekspertizadan (testdan) o'tkazilishini tashkil etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, A.Raupov
63.	<b>Elektron tijoratda</b> iste'molchilarning nomuayyan doirasini huquqlarini himoya qilinganligi va tizimli muammolarini o'rganish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, A.Raupov
64.	Umumiy ovqatlanish korxonalarida iste'molchilarga to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishini va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan <b>taomnoma mavjudligini o'rganish.</b>	August-sentyabr	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, A.Raupov
<b>III. AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITISH</b>			
65.	Davlat xaridlari jarayonida amalga oshirilgan savdolarda raqobatga qarshi harakatlar, kartel kelishuvlari yoki kelishib olingan harakatlar mavjudligini o'rganish	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b>

<b>№</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi*</b>	<b>Ijro muddati*</b>	<b>Mas'ul ijrochilar*</b>
	hamda amalga oshirilgan ishlar va aniqlangan holatlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.		Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
66.	Raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va insofsiz raqobatga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha ommaviy axborot vositalari uchun materiallar tayyorlash va e'lon qilib borish.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
67.	Amalga oshirilgan ishlarni va hisobotlarni "Fair Tech" elektron tizimiga doimiy kiritib borish.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat va hududiy boshqarmalar
68.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Qo'mitaning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlari orqali keng yoritib borish.	Doimiy	T.Salimov
69.	Farmasevtika va tibbiyot sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan bo'yicha OAVda yoritish materiallar taqdim etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, B.Sharipov
70.	Uy-joy communal, transport xizmatlari sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan bo'yicha OAVda yoritish materiallar taqdim etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, X.Ganjaev
71.	Savdo va umumiyl ovqatlanish sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan bo'yicha OAVda yoritish materiallar taqdim etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, A.Raupov
72.	Aloqa, moliya va ijtimoiy xizmatlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan bo'yicha OAVda yoritish materiallar taqdim etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, F.Madaminov

No	Chora-tadbirlar nomi*	Ijro muddati*	Mas'ul ijrochilar*
73.	Reklama munosabatlari masalalari sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Qo'mita tomonidan amalga oshirilgan bo'yicha OAVda yoritish materiallar taqdim etish.	Doimiy	<b>Hududiy boshqarma boshliqlar,</b> E.Xaitmetov, Sh.Maxamadaliev
<b>IV. XALQARO AMALIYOTNI O'RGANISH VA TATBIQ ETISH</b>			
74.	<p>Iqtisodiy konsentratsiya bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, bunda yirik bitimlar va kelishuvlarni tuzishga rozilik berishda monopoliyaga qarshi organ tomonidan belgilanadigan talablar hamda shaxslar guruhi ichida tuziladigan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish.</p> <p>O'rganish natijalariga asosan, tovar-moliya bozoridagi raqobat muhitini yanada oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va rahbariyatga kiritish.</p>	2024-yil aprel	D.Nasirova Sh.Qahhorov J.Isroilov Hududiy organlar
75.	<p>Elektr ta'minotida uzilishlar, avariya holatlarini bartaraf etishni daviyligi va reglamentini belgilash hamda iste'molchilarga kompensatsiya to'lashni nazarda tutuvchi takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, elektr energiyasi yetkazib berishda uzilishlar, ta'minotni asossiz ravishda to'xtatilishini oldini olish, yetkazib beruvchi korxonalarни ma'suliyatini oshirish maqsadida iste'molchilarga kompensatsiya to'lash mexanizmini joriy qilish bo'yicha taklif ishlab chiqish.</p>	Sentyabr-dekabr	E.Xaitmetov, <b>X.Ganjaev</b>
<b>V. XODIMLARNI MALAKA VA SALOHIYATINI OSHIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR</b>			
76.	Qo'mitaning malakali mutaxassislari tomonidan hududiy boshqarmalar xodimlari uchun davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini ta'minlash, insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish yuzasidan o'quv seminarlari tashkil etish.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Boshqarma xodimlari
77.	Qo'mitaning va hududiy boshqarmalarning insofsiz raqobat hamda tanlov savdolarni nazorat qilish bo'yicha mutaxassislarini Qo'mitaga kelib amaliyot o'tashlarini tashkillashtirish.	Doimiy	<b>B.Boboxonov</b> <b>A.Salimov</b> Markaziy apparat
78.	Raqobat sohasi va monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida o'tkaziladigan seminarlar, konferensiylar va amaliy treninglarda online va offline tarzda ishtirok etish.	Doimiy	T.Salimov

**Izoh:** - qonunchilikda o'zgartirishlar bo'lganda, Qo'mita tarkibiy bo'linmalarida o'zgarishlar bo'lganda va/yoki boshqa asosli sabablar bo'lganda ish rejaning chora-tadbirlari, ijro muddati va ijrochilari o'zgartirilishi mumkin.